

UO‘T: 633.854.78:631.53.048.

**EKISH MUDDATLARI HAMDA ME‘YORLARINING KUNGABOQAR
NAVLARI HOSIL ELEMENTLARIGA TA’SIRI**

Yuldasheva Zulfiya Kamalovna - Toshkent davlat agrar universiteti professori
Ergasheva Nargiza Xoshimjonovna - Toshkent davlat agrar universiteti assistenti

Annotatsiya. Maqolada moyli kungaboqar navlari savatlari 1 aprel va 1 may muddatda ekilganga nisbatan 15 aprel kuni ekilganida Buzuluk navida Dilbar (st) naviga nisbatan yirik bo‘lishi, lekin savatlardagi urug‘lar soni ekish me‘yori 60 ming dona/ga miqdorida sarflangan variantda (1656,3-1970,2 dona) Buzuluk navida Dilbar (st) naviga nisbatan ko‘p va vazni ham og‘ir (423,4-538,2 dona) va (39,1-53,6 gramm) bo‘lishi hamda puch urug‘lar soni ham kam bo‘lganligi aniqlangan va isbotlangan.

Kalit so‘zlar: kungaboqar, moyli, me‘yor, muddat, nav, urug‘, savat

Аннотация. В статье установлено и доказано, что при посеве масличных сортов подсолнечника 15 апреля, по сравнению с посевами 1 апреля и 1 мая, корзинки сорта Бузулук оказываются крупнее, чем у сорта Дилбар (st). При норме высева 60 тысяч семян/га количество семян в корзинках у сорта Бузулук (1656,3–1970,2 штук) больше и масса их тяжелее (423,4–538,2 штук) и 39,1–53,6 грамма, а также число пустых семян меньше, чем у сорта Дилбар (st).

Ключевые слова: подсолнечник, масличный, норма, срок, сорт, семя, корзина

Abstract. The article established and proved that when oilseed sunflower varieties were sown on April 15, compared to sowing on April 1 and May 1, the heads of the Buzuluk variety were larger than those of the Dilbar (st) variety. At a seeding rate of 60 thousand seeds/ha, the number of seeds per head in Buzuluk (1656.3–1970.2 seeds) was higher and their weight was heavier (423.4–538.2 seeds and 39.1–53.6 grams), and the number of empty seeds was also lower compared to the Dilbar (st) variety.

Keywords: sunflower, oilseed, norm, term, variety, seed, basket

Kirish. Kungaboqar pistasidan mag‘zi ajratib olinadi va 18-24% urug‘ vazniga nisbatan qobiq ajratiladi va gidroliz sanoatida xom-ashyo sifatida ishlatilib, texnik etil spirti, ozuqa achitqisi va o‘z navbatida plastmassa, sun‘iy tola, sinmaydigan shisha va boshqa qimmatli kimyoviy mahsulotlar tayyorlashda foydalaniladigan furfurol ishlab chiqarish uchun foydalaniladi.

Kungaboqar o‘simliklarining qalinligi qanchalik katta bo‘lsa, savatchalar hajmi shunchalik kichik bo‘ladi va aksincha. Ko‘chat qalinligi notekis bo‘lganda kungaboqar o‘simligi yotib qoladi, katta va kichik savatchalar bir tekis etilmaydi, natijada hosilni yig‘ib olish qiyinlashadi va nobudgarchilik ko‘payadi. Ekish me‘yori kam bo‘lganda savatchalar diametri kattalashadi, urug‘lar yiriklashadi. Bu bilan ma‘lum darajada 1 gektardagi kam o‘simlikdan hosil etishmasligini qoplash mumkin [1, 2].

Kungaboqar ikki xil gullarga ega – tilsimon va naysimon. Tilsimon gullar savatning chetida bir yoki bir nechta qator bo‘lib joylashadi. Naychasimon gullar ikki jinsli, uchi o‘tkirlashgan 2-4 ta pardasimon kosacha bargdan iborat. Bitta savatchada o‘rtacha kungaboqar 600-1200 dona gul hosil qilib, ular hasharotlar va shamol yordamida o‘zaro changlanadi. Shuning uchun, asalari uyalari ekilgan kungaboqar maydoniga yaqin bo‘lishi maqsadga muvofiqdir [3, 4.]

Kungaboqar uchun maqbul ko‘chat qalinligi boshqa moyli ekinlarga nisbatan juda ham zarur hisoblanadi, hosil tarkibining asosiy elementlaridan biri, o‘simliklarning bo‘yi, savatchalarning katta-kichikligi, bir savatchadagi urug‘larning massasi, savatchadagi urug‘lar soni va ularning to‘laligi unga bog‘liq. [5,6,7,8]

Tajriba o‘tkazish uslubi. Dala tajribalari Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida, Toshkent davlat agrar universiteti eksperimental ilmiy tadqiqot va o‘quv tajriba xo‘jaligi 2021 yilda o‘tkazildi. Tajribada kungaboqarning Dilbar (st) va Buzuluk navlari 24 variantli uch takrorlanishda, 1-aprel, 15-aprel hamda 1-may ekish muddatlarida 50, 60, 70, 80 ming dona/ga ekish me‘yorlarida ekildi.

Tajriba natijalari. Ekish muddati 15 aprel sanasidan 15 kun oldin, yoki erta 1 aprel muddatda hamda 15 kun kechikib yoki 1 may muddatda ekilganiga nisbatan kungaboqar savatlarining yirik bo‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Buzuluk navida 15 aprel muddatda ekilganida ekish me‘yorlari bo‘yicha savatlar diametri 23,5; 23,7, 22,5

va 22,0 sm bo'lib, 1 aprel kuni ekilganga nisbatan ekish me'yorlari bo'yicha 1,2; 1,3; 1,3 va 2,0 sm ga yirik hamda 1 may kuni ekilganga nisbatan 2,2; 2,2; 2,5 va 2,2 sm ga yirik bo'lishi kuzatildi. Dilbar (st) navida ham, 15 aprel muddatda ekilganga savatlarning yirik bo'lib shakllanishi aniqlandi.

Gektariga 50 ming donadan 80 ming donagacha ekish me'yorlarini oshirish savatlarning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ko'chatlar zich joylashtirilganda barcha ekish muddatlarida savatlar kichik bo'lib shakllanishi kuzatildi. Ko'chatlar soni me'yorida joylashtirilganga nisbatan zich joylashtirilganida maqbul muddatda Buzuluk navida 1,7 sm ga va Dilbar (st) navida 3,0 sm ga kichik savatlar shakllanishi aniqlandi.

Savatdan ajratib olingan urug'larning umumiy soni va to'liq urug'lar hamda puch urug'lar soni aniqlandi. Ekish me'yorining 50 ming donadan 80 ming donagacha oshirilishi savatdagi urug'larning kamayishiga olib keldi. 15 aprel kuni ekilganida to'liq urug'lar soni, gektariga 60 ming dona urug' sarflangan variantda Buzuluk navida 1929,4 dona bo'lib, ekish me'yori oshirilgan variantga nisbatan 334,9 donaga ko'p bo'ldi. Dilbar (st) navida ham ekish me'yori oshirilgan variantga nisbatan 206,3 donaga ko'p bo'lganligi aniqlandi.

Ekish me'yori gektariga 60 ming dona urug' ekilgan variantda savatdagi urug'lar soni tajribada o'rganilgan ikkala navda ham barcha muddatlarda ko'p bo'lishi aniqlandi. Demak, kungaboqarni gektariga 60 ming dona urug' sarflab ekish yoki o'suv davri oxirida 54-56 ming dona atrofida o'simliklarning saqlanib qolishi savatlardagi urug'larning ko'p bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval

Kungaboqar navlarining hosil elementlarining ekish muddatlari va ekish me'yorlariga bog'liqligi, 2021 y.

№			me'yori,				
				diametri, sm	to'liq urug'lar	urug'lar	to'liq urug'
	D						
	i						
	,						

					4		
					9		
					3		
					8		
					1	2	
					8		
1							
3							
1					5		
4							
1							
5							
1							
6							
1							
7							
1							
8							
1							
9							
2							
0							
2							
1							
2							
2							

2							
3							
2							
4							

Savatida to‘liq urug‘lar bilan birgalikda puch urug‘lar ham aniqlandi. Puch urug‘lar asosan savatning o‘rtasida kuzatildi. Puch urug‘larning to‘liq urug‘larga nisbati Buzuluk navida muddatlar va me‘yorlari bo‘yicha 0,033-0,038 % atrofida, Dilbar (st) navida 0,036-0,043 % atrofida bo‘lishi aniqlandi. Puch urug‘larning to‘liq urug‘larga nisbati Buzuluk navida, Dilbar (st) naviga nisbatan kam bo‘ldi.

Savatlardan urug‘lar ajratib olingach puch urug‘lar olib tashlandi va to‘liq urug‘larning vazni tarozida tortilib aniqlandi. Buzuluk navini 1 aprel kuni ekilganida ekish me‘yorlari bo‘yicha 98,2-123,7 gramm, 15 aprel muddatida 143,5-183,2 gramm, 1 may muddatida 79,5-98,5 grammni tashkil qildi. Gektariga 60 ming dona urug‘ ekilgan variantda barcha ekish 123,7; 183,2 va 98,5 grammni tashkil qildi, bundan ko‘rinadiki bir savatdan ajratib olgan urug‘lar soni ham ushbu variantda ko‘p bo‘lganligi uchun ham bitta savatdagi urug‘larning vazni ham og‘ir bo‘lganligi aniqlandi. Ekish muddatlaridan 15 aprel kuni ekilganida to‘liq urug‘lar soni va vazni bo‘yicha tajribadagi boshqa variantlardan og‘ir bo‘ldi.

Dilbar (st) navini 1 aprel kuni ekilganida ekish me‘yorlari bo‘yicha 85,9-108,5 gramm, 15 aprel muddatida 104,4-129,6 gramm, 1 may muddatida 78,6-89,0 grammni tashkil qildi. Gektariga 60 ming dona urug‘ ekilgan variantda barcha ekish 108,5; 129,6 va 89,0 grammni tashkil qildi. Gektariga 80 ming dona urug‘ ekilgan variantlarda ekish muddatlari bo‘yicha eng kam vaznga ega bo‘lib, 85,9; 104,4 va 78,6 grammni tashkil qildi. Dilbar (st) navida Buzuluk naviga nisbatan to‘liq urug‘lar vazni kam bo‘lganligi aniqlandi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, moyli kungaboqarni Buzuluk va Dilbar (st) navlarining ekish me‘yori kam qo‘llanilgan variantda va ko‘chatlarning zichligi, bitta savatdagi urug‘lar soniga, savat diametriga va urug‘larning vazniga bog‘liqligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Веретин. К. П. Технологические приёмы повышения продуктивности и качества маслосемян подсолнечника в западной зоне Оренбургского Предуралья: автореф. дис. канд. с.-х. наук: 06.01.09 / К.П. Веретин. Оренбург, 2006. - 24 с.
2. Медведев, Г.А. Влияние норм высева и биологически активных веществ на урожайность гибридов подсолнечника / Г.А. Медведев, Н.Г. Екатериничева, В.С. Утученков // Известия Нижневолжского агроуниверситетского комплекса: наука и высшее профессиональное образование. - 2008. № 3. С. 31-34.
3. Mametgulov K., G.Novruzov, Y.Palyazova, M.Nursahedov Kungaboqar etishtirish bo'yicha qo'llanma// Turkman qishloq xojalik instituti, Qishloq xojalik tadqiqot va ishlab chiqarish markazi 2021-B. 6-7
4. Xudayqulov J.B., Atabaeva H.N. 100 to'plami kungaboqar etishtirish 43-kitob, Nashriyot uyi "Tasvir" – 2021-B. 26-32
5. Пищева, З.М. Густота стояния и урожайность подсолнечника // Масличные культуры. – 1986. – № 5. – С. 23.
6. Рекомендации по адаптивной технологии возделывания подсолнечника в Воронежской области : предназначены для руководителей и специалистов коллективных и крестьянских (фермерских) хозяйств / Богучар, 2006. – 29 с.
7. Утученков В.С. Продуктивность гибридов подсолнечника в зависимости от норм высева и применения флоргумата, мастер-с и бишофита на южных черноземах Волгоградской области: автореф. дис. канд. с.-х.– Волгоград, 2009. – 24 с.
8. Губанов Я.В., Тихвинский С. Ф., Горелов Э. П. Технические культуры / – М.:Агропромиздат, 1986. С. 287